



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025-yil "30" may

BUYRUQ № 57

Toshkent sh.

Respondentlarning statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlilini o'tkazish tartibini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining «Rasmiy statistika to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75- son qaroriga muvofiq, birlamchi statistika ma'lumotlarini qabul qilish va tahlil etish ishlarini ilg'or xorijiy statistika amaliyotini inobatga olgan holda yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Respondentlarning statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlilini o'tkazish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Milliy statistika qo'mitasining tarmoq boshqarmalari Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov) va Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va statistik registrnlarni yuritish boshqarmasi (Sh. Odilov) bilan birgalikda:

2026- yil 1- yanvarga qadar barcha turdagi statistika hisobotlarini qabul qilish jarayonlarini inson omilisiz avtomatlashtirilgan holda amalga oshirishni yo'lga qo'ysinlar;

buning uchun **eStat- 4.0 axborot tizimiga** har bir hisobot shaklidagi ko'rsatkichlar bo'yicha puxta ishlab chiqilgan mantiqiy nazoratlarni qo'shimcha ravishda kiritish choralari ko'rsinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2017- yil 17- oktabrdagi 97- son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

4. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Rais

B. Hamrayev